

Sobitov A'zamxon Tursunpo'lot o'g'li,
Namangan davlat universiteti Jahon tillari
fakulteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrası
o'qituvchisi
tursunpulotovich21@gmail.com
+998999770345

**QADIMGI TURKIY QO'LYOZMALARDA KELGAN
ZONIMLARNING MUSHUKSIMONLAR VA ITSIMONLAR
LEKSIK QATLAMINING QIYOSIY TAHLILI VA TARJIMASI
("DEVONU LUG'OTIT TURK" VA "KODEKS KUMANIKUS"
QO'LYOZMALARI MISOLIDA)**

Annotatsiya: mazkur maqolada Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" hamda "Kodeks Kumanikus" qo'lyozmalarida uchraydigan mushuksimonlar va itsimonlar oilasiga mansub hayvon nomlarining semantik tahlili, ularning ingliz tilidagi adekvat tarjimalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: standard termin, axloqiy tushunchalar, sutemizuvchi, itsimonlar, mushuksimonlar, tozi it, komponent, etimologik, onomastika, zoonimiya, semantik taraqqiyot, yirtqich, zoonim komponentli, zoonimlar tadqiqi, leksik qatlam, onomiya, adekvat tarjima.

Sobitov A'zamkhon Tursunpo'lot ugli,
Teacher of Namangan State University
World languages faculty, Interfaculty
foreign languages department
tursunpulotovich21@gmail.com
+998999770345

**COMPARATIVE ANALYSIS AND TRANSLATION OF THE LEXICAL
LAYER OF ZOONYMS AND TERMS IN ANCIENT TURKISH
MANUSCRIPTS (ON THE EXAMPLE OF THE MANUSCRIPTS
"DEVONU LUG'OTIT TURK" AND "CODEX KUMANIKUS")**

Annotation: This article discusses the semantic analysis of the names of animals belonging to the cat and dog families found in the manuscripts of Mahmud Kashgari's "Devonu Lug'otit Turk" and "Codex Cumanicus", as well as their adequate translations into English.

Key words: standard term, ethical concepts, mammal, canidae, feline, purebred dog, component, etymological, onomastics, zoonymy, semantic development, predator, zoonymic component, zoonymic study, lexical layer, onomy, adequate translation.

Собитов Аъзамхон Турсунпулотович

Преподаватель Наманганский государственный
университет, факультет Мировых языков,
межфакультетской кафедры иностранных языков
tursunpulotovich21@gmail.com
+998999770345

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРЕВОД ЛЕКСИЧЕСКОГО ПЛАСТА ЗООНИМОВ И ТЕРМИНОВ В ДРЕВНЕТУРЕЦКИХ РУКОПИСЯХ (НА ПРИМЕРЕ РУКОПИСЕЙ «DEVONU LUG'OTIT TURK» И «CODEX KUMANIKUS»)

Аннотация: В статье рассматривается семантический анализ названий животных семейств кошачьих и собачьих, встречающихся в рукописях Махмуда Кашгари «Devonu Lug'otit Turk» и «Codex Cumanicus», а также их адекватные переводы на английский язык.

Ключевые слова: стандартный термин, этические концепции, млекопитающее, псовые, кошачьи, чистокровная собака, компонент, этимологический, ономастика, зоонимия, семантическое развитие, хищник, зоонимический компонент, зоонимическое исследование, лексический слой, ононимия, адекватный перевод.

KIRISH

Yirtqich sutemizuvchilar turkumiga mansub mushuksimonlar (felins) hamda itsimonlar (canines) oilasiga kiruvchi hayvon nomlari qadimgi turkiy qo'lyozmalardan bizga ma'lum [1]. Ularning ayrimlari qo'lyozmalar tarkibidagi she'riy parchalar, shuningdek, adabiy janrlar jumladan: maqol, masal va hikmatlarda kelgan bo'lib, izohlab ketilgan bo'lsa, ayrimlari yaxlit lug'at shaklidagina keladi. Bunday yirtqich sutemizuvchilar bevosita yovvoyi tabiat bilan bog'liq bo'lgani holda insoniyat tarixdan sivilizatsiyani yovvoyi tabiatdan bir qancha yo'llar bilan, jumladan, qonuniy, ijtimoiy va axloqiy tuyg'ular bilan ajratib olishga moyil bo'lgan [2]. Bunday zoonimlaning tabiati, ko'rinishi, ularga berilgan nomlar orqali ajratib olingan. Onomastika bo'limining zoonimiya yo'nalishidagi aynan yovvoyi sutemizuvchilar leksik qatlami lug'aviy ma'nolarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va albatta hayvon arxisemali leksemalar, zoonim komponentli matnlarni o'rganish orqali turkiy xalqlarning madaniyati, urf-odati, tili hamda lisoniy xususiyatlari bilan tanishish imkonini beradi [3]. Boshqa tomondan esa, yana bir muhim vazifa – mazkur terminlarni hozirgi zamonaviy ingliz tiliga adekvat usulda tarjima qilinishi va izohlash masalasi ko'ndalang turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda mazkur mavzuning kam o'rganilganligiga bir qancha sabablar mavjud. Birinchidan, XI-XIV asrlardagi turkiy so'zlarning zoonimlar leksik qatlamiga oid ayrim so'zlar bugunga kelib arxaik so'zlarga aylangan. Ikkinchidan, o'sha davrga oid qo'lyozmalarning aksariyati arab yoki fors tillaridagi matnlardir, bu esa bevosita mazkur tillarni ham tadqiq etishni talab qiladi. Ushbu so'zlarning tarjimalari qo'lyozmalar tarkibidagi matnlar, maqollar, masal va she'riy parchalarda keladi ya'ni aksariyat so'zlar yaxlit holda berilmagan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasi, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, Kodeks Kumanikus ya'ni "Qumanlar kitobi" qo'lyozmasi va albatta XIII asrgacha bo'lgan davrdagi turkiy so'zlarning ingliz tiliga tarjima qilingan izohlari berilgan Gerard Clauson tomonidan tuzilgan «An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish» ya'ni "XIII asrgacha bo'lgan Turkiy so'zlar etimologik lug'ati" bevosita turkiy xalqlar tarixida yaratilgan nodir yodgorliklar sirasiga kiradi va albatta ushbu tadqiqot uchun muhim obyekt sifatida tanlab olindi. Qolaversa, XI-XIV asr turkiy yodgorliklarda qayd etilgan zoologik terminlarni jamlash, tartibga solish hamda lingvistik asosda tahlil qilish, shuningdek, mazkur terminlar tizimining o'zbek tili leksik tarkibining shakllanishi va rivojlanishida tutgan o'rnini aniqlashni maqsad qilgan B.Abdushukurovning "XI-XIV asr turkiy yozma manbalarda qo'llanilgan zoonimlar" nomli dissertatsiyasi ham mazkur mavzu uchun muhim adabiyot vazifasini bajardi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zoonimlar tadqiqot metodologiyasi o'ziga xos ilmiy yondashuvlar hamda ehtiyotkorlikni talab qiladi, chunki aynan bir xil davrga mansub bo'lsada, muayyan bir zoonim turli qo'lyozmalarda turlicha shakllarda uchraydi. Ta'kidlash joizki, zoonim leksik qatlamli so'zlarni tartiblash, turli qo'lyozmalarda kelgan zoonimlarni qiyosiy tahlil qilish, ularni ingliz tiliga hozirgi kunga mos ravishda tarjima qilishda nodir manba hisoblanmish "Devonu lug'otit turk" yoki boshqa qo'lyozmalarni nisbatlash uchun uni morfologik, dialektologik, leksik, gramatik

tomondan qiyosiy tekshirib puxta xulosalar chiqarish talab etiladi [5]. Kam o'rganilgan qatlam bo'lsada, zoonimlar tadqiqi bo'yicha salmoqli o'rin egallagan bir qancha ishlar mavjud, jumladan A.Kaferoglu, I.Hakki, S.Nazif, Ch.Inkuy, S.Novik va shu bilan bir qatorda o'zbek tilshunosligida esa, M.Abdullayev, D.Davronov, D.Bazarova, N.Nishonova, B.Jo'rayeva hamda XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlari tadqiqi bo'yicha B.Abdushukurovlar o'z ilmiy tadqiqot ishlari, B.Jafarov tomonidan tarjima qilingan va tartibga solingan "Kodeks Kumanikus" qo'lyozmalarining mazkur soxa rivojiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Yuqoridagi tadqiqot ishlarining aksariyatida tarjimaning sinxron va akademik tarjima turlaridan, chog'ishtirish usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA TAHLILLAR

Mushuksimonlar va itsimonlar oilasiga kiruvchi hayvon nomlari klassifikatsiyasi, ularning semantik tahlili uchun Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasi, qiyosiy tahlil sifatida "Kodeks Kumanikus" ("Qumanlar kitobi") qo'lyozmalari hamda ushbu nomlarning hozirgi kunda adekvat tarjimalarni ingliz tilida berish uchun Gerard Clauson tomonidan tuzilgan "XIII asrgacha bo'lgan Turkiy so'zlar etimologik lug'ati" obyekt sifatida tanlab olindi. "Devonu lug'otit turk" asaridagi aksariyat so'zlar Gerard Clauson tomonidan tuzilgan etimologik lug'at orqali ingliz tiliga adekvat usulda tarjima qilindi hamda O'zbek tilining izohli lug'ati yordamida har bir qiyoslangan hayvon nomlarining izohlari berib ketildi. Yuqoridagi qo'lyozmalarda mushuksimonlar oilasiga kiruvchi 4 urug'ga mansub (yirik mushuklar, mushuklar, qor qoplonlari, gepardlar) hamda itsimonlar oilasiga mansub bir necha turdan ortiq hayvon nomlari qiyosiy tahlil qilingan [6].

تُرک so'zi "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida: **itr** shaklida yaxlit termin sifatida berilib, 'it', 'kuchuk' tarjimalarida kelgan bo'lsa, Kodeks Kumanikus qo'lyozmasida mazkur termin **"Jtt"** shakilda berilgan va "it" – uy-ro'zg'orni qo'riqlash, ov ovlash va shu kabi maqsadlar uchun ishlatiladigan to'rt oyoqli uy hayvoni deya izohlangan. Clauson turkiy so'zlar etimologik lug'atida esa etimologik lug'atida: **"it"** means "dog": used in a number of phrases, normally to

connote inferior quality, but in some for obscure reasons according to turku (VIII) “it yil” means ‘Dog Year’ (in the 12-year cycle). Xak. XI also gives it – dog. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, yuqoridagi nomlari qayd etilgan barcha qadimgi turkiy qo’lyozmalarda mazkur sutemizuvchi hayvon nomi deyarli bir xil shaklda va bir xil talaffuzda kelgan. O’zbek tili izohli lug’atida: “qo’riqlash, ov qilish kabi maqsadlar uchun saqlanadigan to’rt oyoqli sutemizuvchi uy hayvoni deya ta’rif beriladi.

ٱلل so’zi “Devonu lug’otit turk” qo’lyozmasida: **Әһуһ** – yosh arslon, (arslon bolasi), yollik bo’ri, tulki, it bolalari deya ta’riflangan va yaxlit termin shaklida berilgan bo’lsa, Clauson etimologik lug’atida: Xak. XI **enük** siblu’l-asad ‘lion-cub and the young (walad) of a hyaena, wolf or dog is called **enük** deb izoh qoldirilgan ya’ni ‘walad’ – arabcha: yosh, yosh bola, ‘hyaena’ inglizcha – tulki, chiyabo’ri, wolf – bo’ri, dog – it (shu kabi hayvonlar bolasi tarjimasida) deb izoh berilgan. O’zbek tili izohli lug’atida esa: “sherbachcha – sher bolasi, “sherzod” – sher bolasi, nasli kabi izohlarda keladi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi turkiy tillarda hayvon bolalari ma’nosini beruvchi enük termini leksik jihatdan arxaik so’zga aylangan va bugungi kunda asosan hayvon nomiga bachcha (shevada ‘vachcha’) qo’shimchalarini qo’shish orqali yasaladi. Misol tariqasida: *sherbachcha, itvachcha* va h.

سړتل so’zi “Devonu lug’otit turk” qo’lyozmasida: **A:p böpi** – yoldor bo’ri, sirtlon shaklida yaxlit termin sifatida berilgan bo’lsa [7], Clauson turkiy so’zlar etimologik lug’atida: **‘la:n**’ occurs at the end of the names of several animals deya izoh beriladi va sirtla:n terminini misol tariqasida berib ketiladi. O’zbek tili izohli lug’atida: **“sirtlon”** – o’limtik bilan oziqlanadigan, bo’ynida yoli bor, rangi yashash joyiga moslashadigan yirtqich sutemizuvchi hayvon. Demak, mazkur hayvon nomi hozirgi kunda fonetik o’zgarishga uchragan holda shakli va ma’nosini saqlab qolgan.

شوقل so’zi “Devonu lug’otit turk” qo’lyozmasida: **Аржы** - shoqol, chiyabo’ri deyilgan yirtqich bir hayvon, ikki mahraj o’rtasidagi ر bilan talaffuz

qilingan. Odamlar bir narsa atrofiga to'plansalar **تۈلكى كۈچى** **arzu** **arzu** deyдилar ya'ni kishilar *shoqol* odamlarni yemoq uchun to'plangani kabi yig'iladilar demakdir deya ta'riflanadi. Clauson etimologik lug'atida esa: "arju: 'jackal, or hyaena (there doesn't seem to be a native word for jackal, most languages using ṣaḡāl) XIV century Muh. Al-dabu: **"hyaena"** (Webster lug'atida ham hozirgi kundagi eng aderkvat tarjimasi *hyaena* – [ha'i:nə] shaklida berilgan) [8] in Turkistan: **"arju"** shaklida berilgan va deyarli turkiy qabilalarda shunday talaffuz qilingan. O'zbek tili izohli lug'atida: **shoqol** - itsimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvon, "shaqal" shaklida ham uchraydi. Yuqoridagi izohlardan xulosa chiqarilsa, qadimgi turkiy xalqlar uchun *shoqol*, *chiyabo'ri* ma'nosida ishlatilgan **'arju'** so'zi hozirgi kunda leksik jihatdan katta o'zgarishga uchrab, arxaik so'zga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

تۈلكۈ so'zi "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida: **түлкү** – *tulki* deb tarjima qilinadi va yaxlit termin sifatida beriladi. Mazkur hayvon nomi masalda shunday keladi: **түлкү өз жинирә үрпә үзүз болуп** – *tulki o'z inidan nolisa, unga nomus bo'ladi*. Masal orqali berilgan ushbu termin o'ziga xos didaktik vazifada keladi. Clauson etimologik lug'atida: **'Tilkü'**: "fox" according to s.i.a.m.l.g, usually with two rounded vowels, *Xak, XI tilkü (al-t'lab) means "fox" and also a nickname for a girl baby, for reasons explained at some length (Kaş. I) also tülkü, dilkü, tülki* shakllari mavjud. Hozirgi kundagi ingliz tiliga adekvat tarjimasi: **fox** – [fɒks] *tulki*. Deyarli barcha turkiy qabilalarda shakli va fonetik jihatdan bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu termin o'zbek tili izohli lug'atida: *tulki* – bo'risimonlar oilasiga mansub, tumshug'i uzun, dumi mayin uzun junli, o'ta sezgir va ayyor yirtqich sutemizuvchi hayvon deya ta'riflanadi. *Tulki* ma'nosini beruvchi ushbu termin hozirgi kunda biroz fonetik o'zgarishga uchragan holda ishlatilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

تۈلكى توڭۇ so'zi "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida: **тајған** – *chopqir, tozi* it kabi tarjimalarda yaxlit termin sifatida beriladi va maqolda shunday keladi: **тајған жүгрүгін түлкү сөзмәс** ya'ni *tulki yuguruk tozini yaxshi ko'rmaydi*. Bu

maqol o'zini katta olib, husumat qiladigan ikki olimga tegizib aytiladi va bevosita mazkur hayvon nomi orqali ham didaktik o'ziga xoslikni ifodalab keladi. Clauson etimologik lug'atida: Xwar, XIV yügrük means **“swift dog”**, Osm, XIV – yügrük means “fast”, “speed”. Kaş. III, **taiga:n** yügrükin means “nimble dog – fast-running dog). Swift dog [swift dɒ:g] – tozi, chopag'on it deb tarjima qilish mumkin. O'zbek tili izohli lug'atida: tozi – chopag'on ov iti. Oyoqlari ingichka, tumshug'i uzun, yuguruk ov iti. Har yerning tulkisini o'z tozisi bilan ovlar (maqol) [9]. Yuqoridagi izoh va ta'riflardan kelib chiqqan holda shunday xulosa chiqarish mumkin: qadimgi turkiy xalqlarda **‘tajʁan’**, **‘taiga:n’** shakllarida kelgan termin – *tozi, chopqir it* ma'nolarida ishlatilgan bo'lsa, bugunga kelib mazkur termin arxaik so'zga aylangan.

سۆزى so'zi “Devonu lug'otit turk” qo'lyozmasida: **böpi** shaklida yaxlit termin xolatida beriladi va *bo'ri* tarjimasida she'riy parchada shunday keladi:

Кэчә туруп јорјр эрдим, қара, қизіл бөрі көрдүм.

қатіе јані қура көрдүм, қаја көрүп бақу ағдї. ya'ni “Kechasi turib kezar edim. Qora, qizil bo'rilar ni ko'rib qoldim. Kuchli, qattiq yoyimni otishga hozirlandim. Bo'rilar menga qarashdi, meni ko'rish bilan orqasiga, yuqorilarga. Clauson turkiy so'zlar etimologik lug'atida esa mazkur terminga: **böri: wolf**. *According to Tkm. Bö:ri is known, but is not the standard word. Xwar XIII – erkek böri emans a male wolf* deb ta'rif beriladi va shunga asoslangan holda hozirgi kunda ingliz tiliga adekvat tarjimasi: **wolf** [wɒlf] bo'ladi deya xulosa chiqarishimiz mumkin. O'zbek tili izohli lug'atida: **bo'ri** – sutemzuvchilarning itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon, qashqir. Bo'ridan qo'rqqan to'qayga kirmas (maqol). Demak, yuqoridagi izohlardan kelib chiqib xulosa chiqarish mumkinki, mazkur zoonim qadimgi turkiy qabilalarda ham **böri** shaklida ishlatilgan va hozirgi kunda biroz fonetik o'zgarishga uchragan holda o'z shakli hamda ma'nosini saqlab qolgan.

سۆزى **Qöpi** so'zi “Devonu lug'otit turk” qo'lyozmasida boshqa bir o'rinda chiyabo'ri tarjimasida yaxlit termin sifatida beriladi hamda maqolda shunday keladi: **böpi қошнісін јәмәс** – chiyabo'ri qo'shnichilik haqiga rioya qilib,

qo'shnisini yemaydi. Bu maqol qo'shnicilik hurmatiga rioya qilishi zarur bo'lgan kishilarga undab aytiladi va mazkur zoonim komponentli adabiy janr orqali didaktik o'ziga xoslik ifodalangan. Clauson etimologik lug'atida esa mazkur termin bōri shaklida kelib, hozirgi zamonaviy ingliz tiliga **'hyaena'** [haɪ'i:nə] tarzida tarjima qilinadi [10]. O'zbek tili izohli lug'atida: **chiyabo'ri** – itsimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvon, shaqal. *Arslon o'zi ov qiladi... chiyabo'ri esa arslondan qolgan-qutgan mayib-majruhlarini terib yuradi.* Yuqorida berilgan fikr-mulohalardan kelib chiqqan holda shuni aytish muminki, bōpī so'zi qadimgi turkiylarda chiyabo'ri ma'nosida ishlatilgan bo'lib, bo'ri so'zidan imloviy jihatdan farq qiladi. Taqqoslash uchun: **bōpi** (bo'ri) – **bōpī** (chiyabo'ri).

اسلىق so'zi "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida: **Acpi** so'zi *qoplon* deb tarjima qilinadi va ikki rangli chipor ipga اسلىق - **acpī jīwūr** deyiladi deya izoh beriladi. Ikki rangdagi har bir chipor narsaga ham, qoplon rangiga o'xshagani uchun اسلىق **acpī** deyiladi. Clauson etimologik lug'atida esa: **la:n** occurs at the end of the names of several animals **kapla:n** according to Rif (*al-nimr*) *ba:rs means tiger, panther. Çağ – bars "an agile animal rather smaller than a leopard which they tame and use like hunting dogs for hunting wild animals* deb ta'riflanadi va shunga asoslangan holda mazkur terminni hozirgi kundagi ingliz tiliga adekvat tarjimasi: **panther** ['pænθə] - qoplon. O'zbek tili izohli lug'atida: "**qoplon**" – mushuksimonlar oilasiga mansub, mo'ynasi qalin sarg'ish tusli, qora xalqa dog'lari (hollari) bor yirik sutemizuvchi yirtqich hayvon. Shuningdek, mazkur izohli lug'atda: "**bars**" – *ilvirs, yo'lbars* shakllarida uchraydi. Muchal hisobida uchinchi yil nomi ham – bars yili deyiladi. Yuqoridagi izoh va misollardan kelib chiqqan holda xulosa chiqarish mukinki, mazkur hayvon nomi biroz fonetik o'zgarishga uchragan bo'lsada hozirgi kunda ham o'z shakli va ma'nosini saqlab qolgan.

موش so'zi "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida: **myu** shaklida yaxlit termin sifatida keladi va *mushuk* deb tarjima qilinadi (chigilcha). O'g'uzlar **чӧтӱк**

deydilar deya ta’riflanadi. Kodeks kumanikus qo’lyozmasida esa mazkur termin Ma’zi shaklida berilgan. Clauson turkiy so’zlar etimologik lug’atida esa ushbu so’z **maçı** shaklida uchraydi va shunday ta’rif beriladi: *maçı is the standard word for “cat” in NW, but unknown elsewhere in this form: obviously çetük, mü:ş. Türki – möşük, Kumyk – mışık, NW Kk – pışık* deya ta’riflangan. O’zbek tili izohli lug’atida: “**mushuk**” – mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi. *Bunga mushuk ham oftobga chiqmaydi* – bu ovora bo’lishga arzimaydi ma’nosida kelgan.

موشن كوك so’zi “Devonu lug’otit turk” qo’lyozmasida: **күбүк мүйш** so’zi *erkak mushuk* deb tarjima qilinadi va yaxlit termin holatida berilsa [11], Clauson etimologik lug’atida: **çetük** – cat deb izohlanadi. Yana bir izohda: *maçı is the standard word for “cat” in NW, The various Turkish words for “cat” are collected in Shcherbak, some of them: maçı, mö:ş, mı şkıç are demonstrably and it is likely that the rest, including this one, which has no obvious etymology* deb ta’riflanadi va shu ta’riflarga asoslangan holda **black cat** [blæk kæt] deb tarjima qilish mumkin bo’ladi. O’zbek tili izohli lug’atida: “**mushuk**” – mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi. *Bunga mushuk ham oftobga chiqmaydi* – bu ovora bo’lishga arzimaydi ma’nosida kelgan. Demak, qadimgi turkiylarda **күбүк мүйш, çetük, maçı** shakllarida ishlatilgan mazkur hayvon nomi hozirgi kunda arxaik so’zlar hisoblanadi.

تني so’zi “Devonu lug’otit turk” qo’lyozmasida: **тоһа** so’ziga yo’lbars jinsidan bo’lgan bir xil hayvon deb ta’rif beriladi. U filning kushandasidir. Clauson etimologik lug’atida esa: *yolbars means “tiger”, which s.i.a.m.l.g except NE, SW is a compound of yo:l, (here metaphor) – streak, stripe, and “bars” according to Doerfer II*. Shundan kelib chiqqan holatda, ushbu terminning bugungi kundagi eng maqbul tarjimasi: **tiger** [targə] – yo’lbars. O’zbek tili izohli lug’atida: “yo’lbars” – mushuksimonlar oilasiga mansub yirik va kuchli yirtqich hayvon. *Yo’lbars bolasini tutmoq uchun – yo’lbars uyasiga kirmoq kerak (maqol)*. Demak, **тоһа** qadimgi ayrim turkiy qabilalarda yo’lbars ma’nosida ishlatilib, hozirgi kunda

arxaik so'zga aylangan bo'lsa, ayrimlarida yolbars, bars shaklida ishlatilib, hozirgi kunda ham shu tarzda ishlatiladi.

الرسول so'zi "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida: **арслан** so'zi – *arslon* deb tarjima qilingan va yaxlit termin sifatida kelgan bo'lsa, Kodeks kumanikus qo'lyozmasida ushbu termin – '**Astlan**' shaklida uchraydi. Qadimgi turkiy so'zlar etimologik lug'atida esa ushbu terminga quyidagicha izoh berilgan: *Arsla:n – lion: animal name. mong. as arslan, arsalan, sometimes as aslan or a tri-syllable arislan etc. for example: arslan oğlu – lion cub.* Hozirgi kundagi ingliz tiliga eng adekvat tarjimasi: **lion** ['laɪən] – *arslon, sher*. O'zbek tili izohli lug'atida: **arslon** – mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon, sher. *Arslonning o'ligi, sichqonning tirigi* (maqol). Demak, yuqoridagi izohlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, qadimgi turkiy xalqlarda arslon ma'nosini beruvchi **арслан** so'zi hozirgi kunda ham deyarli o'zgarishga uchramagan holda o'z ma'nosida ishlatiladi.

بورسلان so'zi "Devonu lug'otit turk" qo'lyozmasida: **бурслан** – *qoplon* tarjimasida beriladi va yaxlit termin shaklida keladi, Clauson etimologik lug'atida esa: **bursla:n** shaklida kelib, *bursla:n may be used following arsla:n because they are mentioned together and the best explanation is that it is "tiger - taigə, but al-babr fi haqiqatil-lug'a strictly speaking "tiger"* deya ta'rif beriladi. Hozirgi kundagi ingliz tiliga adekvat tarjimalari: **tiger** [taɪgə], **leopard** [lepəd]. O'zbek tili izohli lug'atida: **qoplon** – mushuksimonlar oilasiga mansub, mo'ynasi qalin sarg'ish tusli, qora xalqa dog'lari (hollari) bor yirik sutemizuvchi yirtqich hayvon. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, mazkur hayvon nomi qadimgi turkiy qabilalarda turli shakllarda kelib, hozirgi kunda leksik jihatdan arxaik so'zga aylangan.

Kodeks kumanikus qo'lyozmasida **chostrac** so'zi: *gepart* shaklida berilsa [12], Clauson turkiy so'zlar etimologik lug'atida: '**Bar;s'** – a very early Iranian, but from which Iranian language it was taken is uncertain. Properly "leopard" but in Turkish apparently also used for other large felines. One of the animals of the

12-year animal cycle and so on. Xak. XI: bars (al-fahd) “hunting leopard, cheetah” deya izohlanadi va hozirgi kunda ingliz tiliga eng maqbul tarjimasi - **leopard** [lepəd] - gepart. O'zbek tili izohli lug'atida: **“Gepard”** – mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvon. Xulosa qilish mumkinki, qadimgi turkiy qabilalarda ushbu hayvon nomi turli shakllarda, jumladan: **chostrac, bar;s.** hozirgi kunda esa mazkur hayvon nomlari arxaik so'zga aylangan.

Kodeks kumanikus qo'lyozmasida **‘yrs’** so'zi – *silovsin* deb tarjima qilinadi va mushuksimonlar oilasiga mansub, oyoqlari uzun, tumshug'i cho'ziq, ko'zi juda o'tkir yirtqich hayvon deya ta'riflangan. Clauson etimologik lug'atida esa: The word **“kara”** also occurs as a component in “black”, XIV Chin-Uyğ dict. Kara, kara kulak: **“lynx”** deya izohlanadi. Mazkur terminning hozirgi kundagi adekvat tarjimasi **lynx** [lɪŋks] – *silovsin* [13]. O'zbek tili izohli lug'atida **silovsin** - mushuksimonlar oilasiga mansub, oyoqlari uzun, tumshug'i cho'ziq, ko'zi juda o'tkir yirtqich hayvon. Tog'da *silovsinni* ham, *qoplonni* ham ko'rdik misoli beriladi. Demak, *silovsin* ma'nosini beruvchi so'zlar qo'lyozmalarda turli shakllarda kelgan va hozirgi kunga kelib butunlay arxaik so'zga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

Kodeks kumanikus qo'lyozmasida **‘Cara cu^aan’** terminiga: *rangi qora bo'lgan mushuk* deya ta'rif berilgan. Clauson turkiy so'zlar etimologik lug'atida esa: **‘Kara mü:ş’** – *one of several words for “black cat”*. *Çigil (XI) mü:ş (al-hirra) means: “female cat”, in Oğuz – çetük* kabi izohlar keltirilgan. Izohlardan ko'rinib turibdiki, qadimgi turkiy qabilalarda mazkur termin turli shakllarda kelgan. O'zbek tili izohli lug'atida: **qora mushuk** - *mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich sutemizuvchi* deya ta'riflanadi. Hozirgi kundagi zamonaviy ingliz tilidagi adekvat tarjimasi – **black cat**. Masalan, oralaridan qora mushuk o'tdi – oralarida nizo paydo bo'ldi, oralari buzildi degan ma'noni beradi. Yuqoridagi misol va izohlardan kelib chiqqan holda xulosa chiqarish mumkinki, qora mushuk ma'nosini beruvchi *cara cu^aan*, *kara mü:ş*, *çetük* so'zlari hozirgi kunda leksik jihatdan arxaik so'zlar hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar, fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XI-XIV asr qo'lyozmalarida kelgan itsimonlar hamda mushuksimonlar turkumiga kiruvchi zoonimlar leksik qatlami, shuningdek ularning hozirgi kundagi zamonaviy ingliz tiliga qilingan eng to'g'ri tarjimalari shunchaki lug'atlar to'plami emas, balki o'sha davr turkiy qabilalardagi hayot tarzi, urf-odatlar, madaniy-ma'rifiy, axloqiy tushunchalarni ifodalab beruvchi o'ziga xos faktor vazifasini bajarib berganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qo'lyozmalarda berilgan mazkur zoonimlar bir qancha adabiy janrlar orqali, masalan, maqol, masal, she'riy parchalar tarkibida kelib, lug'aviy ma'nolari to'liq aks ettirib berilganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, she'riy parcha va yana bir qancha adabiy janrlar tarkibida kelgan zoonimlar bevosita o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunga misol tariqasida: **бөрї қошнїсїн жәмәс** – chiyabo'ri qo'shnichilik haqiga rioya qilib, qo'shnisini yemaydi. Bu maqol qo'shnichilik hurmatiga rioya qilishi zarur bo'lgan kishilarga undab aytiladi yoki тїлкү өз жїнїгä ýpcä ýзýз болуп – tulki o'z inidan nolisa, unga nomus bo'ladi kabilarni keltirishimiz mumkin. Mazkur terminlarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilishda, ingliz tiliga adekvat usulda tarjima qilishda Gerard Clauson tomonidan tuzilgan XIII asrgacha bo'lgan turkiy terminlarning etimologik lug'ati ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qadimgi turkiy tillarga oid aksariyat zoonim komponentli terminlarni mazkur manba orqali topish, ularning qiyosiy tahlili va etimologiyasini aniqlashda nihoyatda qimmatli manba ekanligi aniqlandi. Zoonimiya sohasidagi izlanishlar, tadqiqot va tahlillar onomastika yo'nalishi rivojiga katta hissa qo'shadi. Bunday izlanish va tahlillar keyingi tadqiqot ishlari uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 2005. “М” ҳарфи. 891 б.
2. Usher, M. B. *Wildlife conservation evaluation: attributes, criteria and values*. London, New York: Chapman & Hall, 1986. ISBN 978-94-010-8315-7
3. D.Ismoilova, “Tilshunoslikda zoonimlar tadqiqi” (scientific article) Research and Education scientific journal Impact factor 2023: 5.789 ISSN: 2181-3191 https://t.me/ResearchEdu_Journal 67. p.
4. Abdushukurov. B, “XI-XIV asrlar turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar” nomli diss. Ozbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo’lyozmalar instituti. – 1998, Toshkent. 7 b
5. Муталлибов. С, (таржимон ва нашрга та нашрга тайёрловчи) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, II том, №: 81. Тошкент. 1963. 6 б.
6. Wozencraft, W. C. „Felidae“, . *Mammal Species of the World: A Taxonomic and Geographic Reference*, 3-, Johns Hopkins University Press, 2005 — 532–548-bet. ISBN 978-0-8018-8221-0
7. Муталлибов. С, (таржимон ва нашрга та нашрга тайёрловчи) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, I том, №: 81. Тошкент. 1963. 170, 46, 139, 170, 239, 261, 379, 392, 419, 424, 439 - bb.
8. M.W.Cornog, A.K.Harris & A.West, “Merriam Webster’s Dictionary and Thesaurus”, Massachusetts, 2014.- *Revised and updated edition* ISBN: 978-0-87779-863-7
9. Мадвалиев. А ва бошқалар, “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси, Алишер Навоий номидаги тил

ва адабиёт институти, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, Тошкент. 2021. 197, 100, 559, 99, 44, 416, 496, 550, 278, 510, 563, 334, 472 –bb.

10. G.Clauson, “An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish”, 1972. *Oxford at the Clarendon press*, Glasgow. 930, 183, 200, 776, 763, 356, 192, 238, 368 – pp. ISBN 109634812686

11. Муталлибов. С, (*таржимон ва нашрга тайёрловчи*) Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони)” қўлёзмаси, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси А.С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти ва Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, III том, №: 81. Тошкент. 1960. 73, 102, 147, 157 - bb.

12. Жафаров. Б, «КОДЕКС КУМАНИКУС» – ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ЁЗМА ОБИДАСИ. Тошкент, 2017. Дисс.

13. Mayor. M, “The Longman Dictionary of Contemporary English” (LDOCE5), Pearson Education Limited, the fifth edition. England, 2009. ISBN 9781408215333

Internet manbalari:

1. <https://www.ajhuman.uz/article/405791065877/abstract>

2.

<https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/mahmud-koshgariy-va-uning-devoni-lugatit-turk-asari-videodars-devoni-lugatit-turk-3-jildlik.html>

3. <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2734>

4. <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2734/3223>

5. <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/5017>

6. www.Merriam-Webster.com

7. www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

8. https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2017/10/jafarov_b.pdf

